

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2025

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
AХВОРОТНОМАСИ



ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент

СТАТЬИ

TOSHKENT VILOYTIDAGI DAVOLASH PROFILAKTIKA MUASSASALARIDA IONOLANTIRUVCHI NUR MANBALARI QO'LLOVCHI OB'EKTLARNI O'RGANISH NATIJALARI

Abduqodirova L.K.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ИСТОЧНИКОВ ИОНИЗИРУЮЩЕГО ИЗЛУЧЕНИЯ, ОСНАЩАЮЩИХ СРЕДСТВА В ЛЕЧЕБНО-ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЯХ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ

Абдукадилова Л.К.

RESULTS OF A STUDY OF SOURCES OF IONIZING RADIATION EQUIPPING FACILITIES IN MEDICAL AND PREVENTIVE INSTITUTIONS OF THE TASHKENT REGION

Abdukadirova L.K.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Tashkent

Аннотация. В данной статье изучено состояние рентгенодиагностических отделений, использующих источники ионизирующего излучения в лечебно-профилактических учреждениях Ташкентской области, количество аппаратов в рентгенодиагностических отделениях, состояние этих аппаратов, даны выводы.

Ключевые слова: лечебно-профилактические учреждения, рентгенография, радиология, источники ионизирующего излучения, доза, рентгеновский аппарат.

Abstract. This article examines the state of X-ray and radiology departments using ionizing radiation sources in healthcare facilities in the Tashkent region, the number of units in X-ray and radiology departments, and the condition of these units. Conclusions are provided.

Key words: medical and preventive institutions, radiography, radiology, sources of ionizing radiation, dose, X-ray machine.

Kirish. Toshkent viloyati — Respublikaning shimoli-sharqida joylashgan. Maydoni (Toshkent shahri aholisiz) 15,3 ming km². Aholisi (Toshkent shahri aholisiz) 2.931 million kishidan ziyod (2022). Viloyat tarkibida 15 ta tuman (Bekobod, Bo'ka, Bo'stonliq, Zangiota, Oqqo'rg'on, Ohangaron, Parkent, Piskent, Chinoz, Yuqori Chirchiq, Yangiyo'l, O'rta Chirchiq, Qibray, Quyi Chirchiq), 17 shahar (Angren, Bekobod, Bo'ka, Do'stobod, Keles, Olmaliq, Oqqo'rg'on, Ohangaron, Parkent, Piskent, Toshkent, To'ytepa, Chinoz, Chirchiq, Yangiyo'l, Yangiobod, G'azakent), 18 shaharcha (Alimkent, Bo'zsuv, Gulbahor, Zafar, Iskandar, Krasnogorskiy, Nurobod, Olmazor, Salor, Tuyabo'g'iz, Chig'iriy, Chorvoq, Eshonguzar, Yangibozor, Yangi chinoz, Yangiyahot, O'rtaovul, Qibray), 146 qishloq fuqarolari yig'ini bor. Markazi — Nurafshon shahri.

Toshkent viloyatida 10361 o'rinli 96 kasalxonaga muassasasi, 42 dorixona, viloyat tez tibbiy yordam markazi bo'limlari, 334 ambulatoriya poliklinika muassasasi ishlab turibdi. Shulardan 174 qishloq vrachlik punkta, 43 qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 11 stomatologiya poliklinikam, talabalar poliklinikasi va 195 feldsherakusherlik punkti va boshqa tibbiyot muassasalari faoliyat ko'rsatadi.

1999- 2003-yillarda viloyatda 150 o'rinli viloyat klinik shifoxonasi, 170 o'rinli viloyat tug'ruq majmuasi, 90 o'rinli viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi, 60 o'rinli narkologiya dispanseri, 120 o'rinli viloyat ruhiyasab kasalliklari dispanseri, 100 o'rinli viloyat silga qarshi kurash dispanseri, ayollar reproduktiv salomatligini tiklash markazi, Yuqori Chirchiq tumanida 40 o'rinli „Nuroni“ shifoxonasi, Bekobod, Toshkent, O'rta Chirchiq, Qibray tumanlarida yangi tug'ruq majmualari ishga tushirildi. Ular zamonaviy tibbiyot apparatlari,

asbobuskunalar bilan jhozlandi. Toshkent viloyatidagi barcha tibbiy muassasalarda 5032 dan ziyod vrach, 22106 o'rta tibbiy xodim ishlaydi. Viloyat hududida 95 ta bolalar oromgoxdari, 5 ta dam olish zonolari, 10 sanatoriy, 14 ta sanatoriypofilaktoriy, 3 dam olish uylari, 7 ta pansionat, 2 bolalar sanatoriysi faoliyat ko'rsatadi. Toshkent shahridan 90 km shim.sharkda Chatqol tog' yon bag'irlarida „Chimyon“ dam olish zonasi joylashgan.

Tekshirish uslublari. Biz Toshkent viloyatidagi davolash profilaktika muassasalarida ionolantiruvchi nur manbalari qo'llovchi ob'ektlar haqida umumiy ma'lumot olish maqsadida viloyat SEO va JSX radiatsion gigiena bo'limi 2022-2025 yilning xisobotlaridan foydalandik.

Ilmiy tadqiqot ishini olib borish uchun Toshkent viloyatining 17 ta tuman va shaharchalar tanlab olindi. Birinchi navbatda ushbu tuman va shaharchalarda mavjud tibbiyot ob'ektlari soni, muassasalaridagi ionlantiruvchi nur manbalari qo'llovchi rentgen-radiologiya bo'limlari, rentgen xonalarida ishlovchi personal xodimlar, rentgen-radiologiya bo'limlaridagi apparatlar soni va ushbu apparatlarning yaroqlilik xolati o'rganildi.

Olingan natijalar. Toshkent viloyatidagi tanlab olingan 17 ta shahar va tumanlarida davolash profilaktika muassasalar soni 147 ta. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, 147 ta davolash profilaktika muassasalari bo'yicha nur diagnostikasi xamda terapiyasi bilan shug'illanuvchi tibbiyot xodimlar soni 187 nafarni tashkil etadi, shulardan 65 nafari radiolog vrachlar, 83 nafari xamshiralar, 27 nafari esa kichik tibbiyot xodimlari, 12 nafari esa fizik-muxandislardir.

Tadqiqot ostiga olingan 147 ta ob'ektlarning rentgen va radiologiya bo'limlarida 191 ta 13 xildagi apparatlar tashxis qo'yish va davolash maqsadida

qo'llaniladi. 191 nomdagi rentgen apparatlarining 100 ga yaqini tashxis qo'yish uchun moslashtirilgan Rentgen-30, Rentgen-40, RUM-20, URI, KT-64, EDR-rusimdagi apparatlar bo'lib, umum apparatlar ko'rsatkichini 58 foizini tashkil etadi.

12P5 rusmli apparat ko'krak qafasini flyurografiya qilish uchun qo'llanilsa, 5D2, Mini-dent 75, BRT-A

kabi texnik asboblarni stomatologik muolajalar uchun qo'llanilishi aniqlandi.

Rentgen apparatlarining Toshkent viloyati 17 ta tuman va shaharlariga taqsimlanganda quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'ldik: (jadval-1)

1-jadval

Rentgen apparatlarining viloyat tuman va shaharlariga taqsimlanish xolati

Tuman va shaharlar	Ob'ekt soni	Apparatlar soni	Foizlarda
Olmaliq sh	14	22	11,1
Angren sh	15	26	15,1
Oxangaron	5	6	3,1
Oqqo'rg'on	4	4	2,1
Chirchiq sh	13	19	10,0
Bekobod	8	11	5,0
Bo'stonliq t	8	10	5,2
Bo'ka rayoni	3	4	2,1
Zangiota	18	24	12,3
Qibray t	8	14	7,3
Quyi Chirchiq	4	7	3,3
Parkent t	5	8	4,1
Pskent	4	5	2,6
O'rta Chirchiq	9	8	4,1
Chinoz t	5	5	2,7
Yuqori Chirchiq	2	4	2,6
Yangiyo'l t	12	14	7,3
Jami	147	191	100%

Jadvalda keltirilganidek, rentgen apparatlarining ko'p qismi Olmaliq, Angren, Chirchiq, Zangiota tumanlariga to'g'ri kelishi o'rganildi.

SEO materiallari asosida mavjud rentgen apparatlarining yaroqlilik xolatini o'rganish xolatining taxlili quyidagi xolatni ko'rsatdi(jadval-2):

2-Jadval

Toshkent viloyati rentgen apparatlarining ishlab chiqilgan sanalari (2022- 2025y)

Tuman va shaharlar	jami	Ishlab chiqilgan sana				Aparatni ishlash darajasi
		1975-1980	1981-1990	1991-2000	2001-2025	
Olmaliq sh	22	5	10	5	2	13% ishlaydi
Angren sh	26	8	15	3		26% ishlaydi
Oxangaron	6		4	2		50% ishlaydi
Oqqo'rg'on	4	2	1	1		50% ishlaydi
Chirchiq sh	19	2	14	2	1	57% ishlaydi
Bekobod	11	1	7	1	2	54% ishlaydi
Bo'stonliq t	10	3	7			50% ishlaydi
Bo'ka rayoni	4		2	2		25% ishlaydi
Zangiota	24	4	12	6	2	34% ishlaydi
Qibray t	14	1	11	2		28% ishlaydi
Quyi Chirchiq	7	2	4	1		28% ishlaydi
Parkent t	8	1	5	1	1	50% ishlaydi

Pskent	5	1	3		1	30% ishlaydi
O'rta Chirchiq	8	2	4		2	20% ishlaydi
Chinoz t	5		3	2		70% ishlaydi
Yuqori Chirchiq t	4	1	2	4	2	70% ishlaydi
Yangiyo'l t	14	1	6	4	2	27% ishlaydi
Jami	191	36/18%	110/56%	36/18%	15/8%	40% apparatlar ishlaydi.

Jadvalda ko'rinib turganidek, jami mavjud rentgen apparatlarining atigi 40 foizigina ishga yaroqli, qolgan 60 foizi esa eskirgan va ishga yaroqsiz ekanligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa. SEO materiallarini taxlil qilar ekanmiz, mavjud rentgen apparatlarining ko'pi eskirgan, yaroqsiz xolga kelib qolganini guvohi bo'ldik. Masalan, rentgen apparatlarining 18 foizi 1970-1980yillarda, 56 foizidan ziyodi 1980-1990 yillarda, atigi 8 foizi 2001-2020 yil-larga to'g'ri keladi. Ayrim tumanlardagi ionlantiruvchi nur manbalari qo'llovchi ob'ektlardagi rentgen apparat-larining qariyb 84-87 foizi (Olmaliq, Angren, Yangiyo'l, Bo'ka, O'rta Chirchiq, Qibray tumanlari)yaroqsiz ekanli-gi aniqlandi.

Adabiyotlar

1. Абдукадилова, Л. К., & Умирбеков, О. Д. (2020). Да-волаш профилактика муассасалари радиология бўлими хоналаридаги нурланиш доза даражасини аниқлаб баҳо-лаш. *Интернаука*, (2-2), 68-69.
2. Абдукадилова, Л. К. (2019). Экологик барқарорликни таъминлашнинг муҳим омили-атмосфера хавосини муҳо-фаза қилишдир. *Интернаука*, (5-2), 49-50.
3. Абдукадилова, Л. К., & Абдурахмонов, Б. О. (2019). Ра-диология бўлими хоналаридаги нурланиш доза даражаси-ни аниқлаб баҳолаш. *Интернаука*, (3-3), 30-31
4. Закон РУз «О государственном санитарном надзоре»

Mualliflar haqida

Abdukadirova Lola PhD, Associate Professor of the Environmental Hygiene Department, Tashkent State Medical University, Tel: 90-372-11-50, e-mail: lola.abdukadirova@tma.uz, <https://orcid.org/0000-0002-8645-9044>



N657-XII-03.07.1992 г.

5. Закон РУз «О радиационной безопасности» N120- II-31.08.2000 г.

6. Salomova, F. I., Akhmadaliev, N. O., Sharipova, S. A., & Abdukadirova, L. K. (2019). Social Portrait, Conditions, Lifestyle and Health of Universities Professors of The Republic of Uzbekistan in Modern Conditions. *Central Asian Journal of Medicine*, 2019(3), 93-103.

TOSHKENT VILOYATIDAGI DAVOLASH PROFILAKTIKA MUASSASALARIDA IONOLANTIRUVCHI NUR MANBALARI QO'LLOVCHI OB'EKTLARNI O'RGANISH NATIJALARI

Abduqodirova L.K.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent viloyatidagi davolash profilaktika muassasalarida ionolantiruvchi nur manbalari qo'llovchi rentgen-radiologiya bo'limlari, rentgen xonalarida ishlovchi personal xodimlarning sa-lomatlik xolati, rentgen-radiologiya bo'limlaridagi ap-paratlar soni va ushbu apparatlarning yaroqlilik xolati o'rganildi va xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: davolash profilaktika muassasalari, rentgen nurlari, radiologiya, ionlantiruvchi nur man-balari, doza, rentgen apparati.

СОДЕРЖАНИЕ

МАТЕРИАЛЫ КОНФЕРЕНЦИИ

ТЕЗИСЫ

<i>Choi Jae Wook, Kim Kёng Хи, Sachchi Baral, Ovezov A.O., Shukurov A. Дж., Халлыев Р.Ч., Поладов Н.П., Гайлыев Ы.Б., Рахимов Б.Б., Носирова Ш.А. ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКАЯ АКТУАЛИЗАЦИЯ БАЗОВЫХ ОСНОВ СТРАТЕГИИ “ЕДИНОЕ ЗДОРОВЬЕ”</i>	4
<i>Choi Jae Wook, Kim Kyung Hee, Sachchi Baral, Ovezov A.O., Shukurov A.J., Hallyyev R.Ch., Poladov N.P., Gaylyyev Y.B., Rahimov B.B., Nosirova Sh.A. EPIDEMIOLOGICAL UPDATE OF THE BASIC PRINCIPLES OF THE “ONE HEALTH” STRATEGY</i>	5
<i>Сайфуллаева С.А. К МЕХАНИЗМАМ ДИСБАЛАНСА НИТРЕРГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ПРИ ЯЗВЕННОМ ПОРАЖЕНИИ ЖЕЛУДКА</i>	6

СТАТЬИ

<i>Abduqodirova L.K. TOSHKENT VILOYTIDAGI DAVOLASH PROFILAKTIKA MUASSASALARIDA IONOLANTIRUVCHI NUR MANBALARI QO’LLOVCHI OB’EKT LARNI O’RGANISH NATIJALARI</i>	<i>Abdukadirova L.K. RESULTS OF A STUDY OF SOURCES OF IONIZING RADIATION EQUIPPING FACILITIES IN MEDICAL AND PREVENTIVE INSTITUTIONS OF THE TASHKENT REGION</i>	7
<i>Abduraxmanov J.A., Raximov B.B., Salomova F.I., Sultonov E.Y. O’ZBEKISTON HUDUDLARIDA AVTOMOBIL TRANSPORTI FAOLIYATI VA ATMOSFERA IFLOSANISHI O’RTASIDAGI BOG’LIQLIK: 2010–2024 YILLAR UCHUN KORRELYATSION TAHLIL</i>	<i>Abdurakhmanov J.A., Rakhimov B.B., Salomova F.I., Sultonov E.Y. CORRELATION ANALYSIS BETWEEN MOTOR TRANSPORT ACTIVITY AND ATMOSPHERIC POLLUTION IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN: 2010–2024</i>	10
<i>Akhmadaliyeva N.O., Imamova A.O. THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE HEALTH AND DISEASE INCIDENCE OF FREQUENTLY ILL CHILDREN IN EARLY CHILDHOOD EDUCATIONAL SETTINGS</i>	<i>Akhmadaliyeva N.O., Imamova A.O. MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA TEZKASALLANUVCHI BOLALAR SALOMATLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARINING TA’SIRI</i>	17
<i>Ataniyazova Raushan Aminovna¹, Barakayev Farruxjon Ilxomjon o’g’li² MOG’OR ZAMBURUG’LI IFLOSANISH RIVOJLANISHINING DASTLABKI OMILLARI SIFATIDA TURAR-JOY BINOLARINING MIKROIQLIM SHAROITLARINI GIGIYENIK BAHOLASH</i>	<i>Ataniyazova R.A., Barakayev F. I. HYGIENIC ASSESSMENT OF MICROCLIMATIC CONDITIONS IN RESIDENTIAL PREMISES AS PREREQUISITES FOR THE DEVELOPMENT OF MOLD CONTAMINATION</i>	20
<i>Choi Jae Wook, Salomova F.I., Akhmadaliyeva N.O., Raximov B.B., Abdukadirova L.K., Sadullaeva X.A., Sherkuzieva G.F., Toshmatova G.A., Turabayeva Z.K., Khakimova D.S. ИЗМЕНЕНИЕ КЛИМАТА: ГЛОБАЛЬНОЕ ПОТЕПЛЕНИЕ И СОСТОЯНИЕ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ</i>	<i>Choi Jae Wook, Salomova F.I., Akhmadaliyeva N.O., Rakhimov B.B., Abdukadirova L.K., Sadullaeva Kh.A., Sherkuzieva G.F., Toshmatova G.A., Turabayeva Z.K., Khakimova D.S. CLIMATE CHANGE: GLOBAL WARMING AND POPULATION HEALTH</i>	23
<i>Hasanova M.I., Usmonov I. A. AMUDARYO HAVZASIDAGI KICHIK DARYOLARNING EKOLOGIK HOLATI</i>	<i>Hasanova M. I., Usmonov I. A. ECOLOGICAL STATE OF SMALL RIVERS IN THE LOWER AMU DARYA BASIN</i>	27
<i>Israilova G.M. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OZIQ-OVQAT SIFATI VA XAVFSILIGI TA’MINLASHDA MUTAXASSISLARNING KASBIY ETIKASI</i>	<i>Israilova G.M. PROFESSIONAL ETHICS OF FOOD QUALITY AND SAFETY SPECIALISTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN</i>	30
<i>Komilova N.K. IQLIM O’ZGARISHI SHAROITIDA URBANIZATSIYALASHGAN MINTAQALAR EKOLOGIK HOLATI VA AHOLI SALOMATLIGI MUAMMOLARI</i>	<i>Komilova N.K. SOME THEORETICAL ASPECTS OF STUDYING THE ECOLOGICAL AND ECONOMIC CONDITION OF URBANIZING REGIONS (TASHKENT CITY AS AN EXAMPLE)</i>	32
<i>Mahmudjonova M.S. ATMOSFERA HAVOSI SUV TUPROQNING NOMUVOFIQ OMILLARINI GIGIYENIK REGLAMENTLASHGA BOLGAN UMUMIY YONDASHISHLAR</i>	<i>Mahmudjonova M.S. GENERAL APPROACHES TO THE HYGIENIC REGULATION OF ADVERSE FACTORS IN ATMOSPHERIC AIR, WATER, AND SOIL</i>	39
<i>Mamasoliev Sh. A. O’ZBEKISTONDA ICHIMLIK SUVI SIFATINI YAXSHILASH, IFLOSANISH MANBALARINI ANIQLASH VA XAVFSIZ SUV TA’MINOTI INFRAUZILMASINI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI</i>	<i>Mamasoliev Sh. A. APPROACHES TO IMPROVING DRINKING WATER QUALITY, DETECTING POLLUTION SOURCES, AND DEVELOPING SUSTAINABLE WATER SUPPLY INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN</i>	42